

DFF - Kokand Fertilisers GET Capex

Mamlakat
O'zbekiston

Loyiha raqami:
51197

Faoliyat sohasi:
Ishlab chiqarish va xizmatlar

Bildirishnoma turi:
Xususiy

Ekologik toifasi:
B

Tasdiqlangan kuni:
2020-yil 21-yanvar

Qaysi bosqichdaligi:
O'zlashtirilmoqda

Loyihaning qisqacha mazmuni (LQM) ingliz tilida- chop etilgan sana:
2020-yil 24-yanvar

Axborotdan foydalanish to'g'risidagi direktivaning 1.4.2 (iii)-bandiga muvofiq: "Bankning boshqaruv kengashi tomonidan tasdiqlash vakolatini topshirilgan Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlangan loyihalar uchun LQM YTTBni ta'sis qilish to'g'risidagi Kelishuvning 13 (iii)-moddasiga muvofiq, Bank a'zo mamlakatga norozilik yo'qligi haqidagi bildirishnoma tegishli davr boshida chop qilinishi kerak."

Loyiha mazmuni

O'zbekistonda joylashgan, fosforli o'g'itlar ishlab chiqarishga asoslangan, yaqinda xususiylashtirilgan eski "Qo'qon superfosfat zavodi" OAJ, xususiylashtirilganidan so'ng esa Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals (keyingi o'rinlarda "IKF" yoki "kompaniya" deb yuritiladi) nomini olgan aksiyadorlik jamiyatiga energiya samaradorligi sohasida kapital xarajatlar dasturini modernizatsiya qilish va amalga oshirishni moliyalashtirish uchun 12,5 million AQSH dollari miqdorida va Kompaniyaning boshlang'ich aylanma kapitali ehtiyojlarinini moliyalashtirish maqsadida 10 million AQSH dollarining mahalliy valyutadagi ekvivalenti miqdorida kredit ajratish.

Loyiha maqsadi

Mazkur loyiha (i) yangi uskunalarni o'rnatish va zavod infratuzilmasini modernizatsiyalash orqali eskirib qolgan zavodning ish unumdorligini oshirish, (ii) kompaniyaning faoliyati, xavfsizligi, iqtisodiy integratsiyasi va atrof-muhit standartlarini yaxshilash va (iii) ishlab chiqarish quvvatini ko'tarish va ushbu sektorning mamlakatdagi umumiy raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'tish davri ta'siri

Kutilayotgan o'tish davri ta'siri (KO'DB) bahosi: 75

Bu loyiha o'tish davri ta'siri sifatida raqobatbardoshlikni va kengroq ishtirokni ta'minlaydi. Xususan, u yaqinda xususiylashtirilgan eskirgan zavodning qayta tashkil etilishini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa samaradorlik va rentabellikning sezilarli darajada o'sishiga olib keladi. Bundan tashqari, ushbu loyiha O'zbekistondagi mineral o'g'itlar bozoriga global va strategik ishtirokchini olib kirishi barobarida, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb qilishni ham ko'zda tutadi.

Loyiha xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratishi bilan IKFni teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha maxsus harakatlar rejasi orqali tegishli tarzda gender tenglikka erishishga ko'maklashadi. Bu xotin-qiz xodimlarning ishga kirishi, malakalarini oshirishi va shu yerda ishlab qolish imkoniyatlarini yanada mustahkamlaydi.

O'tish davri maqsadlarini baholash tizimi (OMBT) bahosi: 75

Mijoz haqida

INDORAMA KOKAND FERTILISERS AND CHEMICALS AJ

Hozirda Indorama Holdings B.V. kompaniyaning 95,54% aksiyalariga egalik qiladi. Qolgan aksiyalari esa, asosan, kompaniyaning hozirgi va sobiq xodimlariga tegishlidir. Indorama Holdings B.V. esa, o'z navbatida, Singapurda ro'yxatga olingan Indorama Corporation Pte Ltd. ("IRC") kompaniyasining 100 foiz sho'ba korxonasi hisoblanadi.

IRC esa, Osiyodagi yetakchi sanoat konglomeratlaridan hisoblangan, neft kimyosi, mineral o'g'itlar va shunga bog'liq sohalarga katta sarmoya kiritgan Indorama Group kompaniyasining xolding kompaniyasidir. S.P Lohia janoblari va uning oila a'zolari IRC kompaniyasining to'liq egasi sanaladi. Indorama Group 1975-yilda Indoneziyada tashkil qilingan. Bu kompaniya g'arbiy Afrikadagi eng yirik neft asosidagi kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarib, u shuningdek olefin, poliolefin, fosfor kislotasi, fosforli o'g'itlar, ammiak, karbamid va dunyodagi eng yirik sintetik bir martalik qo'lqop ishlab chiqaruvchi kompaniya hisoblanadi.

Taylandda joylashgan Indorama Ventures Public Company Limited kompaniyasi bilan hamkorlikda Indorama Group kompaniyasi poliefir ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi, poliefir xom ashyosi (PX, PTA va MEG) va sintetik tola ishlab chiqarish bo'yicha ilg'or kompaniya hisoblanadi. U dunyoning 37 mamlakatida 136 ta zavodga

ega bo'lib, yiliga sotish uchun umumiy 25 million tonna mahsulot ishlab chiqaradi. Kompaniyaning yillik umumiy savdo hajmi 15 milliard AQSH dollaridan ortadi.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

12,500,000.00 AQSH dollari

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar:

Kapital xarajatlarni moliyalashtirish uchun kredit miqdori – 12 500 000,00 AQSH dollari.

Aylanma mablag'larni moliyalashtirish uchun kredit miqdori (so'mdagi ekvivalentda) – 10 000 000,00 AQSH dollari.

Loyihaning umumiy qiymati

35 000 000,00 AQSH dollari

Jumladan, aylanma mablag'larga ajratiladigan kredit qo'shganda: 45 000 000,00 AQSH dollari

Qo'shimcha shartlar

YTTB mahalliy bozorda foydalanish imkoni yo'q bo'lgan shartlarga ko'ra mablag'lar ajratadi. Bu munosabatlarda Bankning o'zining ham ishtirok etishi nomoliyaviy xavflarni kamaytirgan holda, mijozlar va investorlarga qo'shimcha qulaylik yaratadi. Loyiha, shuningdek, yuqori ekologik standartlarga erishish, iqlim o'zgarishi sharoitida energiya va resurslardan foydalanish samaradorligini moliyalash sohasini qo'llab-quvvatlashda kompaniyaga yordam beradi.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

2014 ESP bo'yicha B toifasi berildi. Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) Atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy himoya boshqarmasi (ESD) tomonidan amalga oshirildi. Uning doirasida mahalliy atrof-muhitga ta'sirni baholash (EIA) (hukumat tomonidan 2019-yil avgust oyida tasdiqlangan) hisoboti ko'rib chiqildi, mijoz faoliyat ko'rsatayotgan binoga tashrif buyurildi va kompaniya bilan muhokamalar olib borildi. ESDDda Homiyning amaldagi ishlab chiqarish talablari (PR) bilan muvofiqlashtirilgan korporativ ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi, odob-axloq qoidalari va boshqa tegishli hujjatlarga ega ekanligi aniqlandi Zavodga ekologik va ijtimoiy ta'sirni risoladagidek tarzda kamaytirish va boshqarishni ta'minlash uchun Kompaniya Loyiha uchun ana shunday ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini joriy qilishi zarur.

Kompaniyaning ishlab chiqarish binolari va omborlari Farg'ona vodiysidagi Qo'qon shahrida joylashgan bo'lib, u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va faoliyatini yaxshilash, xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va ekologik standartlarni takomillashtirishga qaratilgan kapital ta'mirlash dasturi asosida modernizatsiya qilinadi. Qurilish ishlarining ta'sirlari esa, ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasini

amalga oshirish orqali kamaytiriladi. Obyekt joylashgan yerdan tuproq va yer osti suvlari namunalari olingan va ularda jiddiy muammolar aniqlanmagan. Qayta jihozlangan zavodda Yevropa Ittifoqining eng yaxshi mavjud texnologiyalari (BAT) hamda chiqindilarni nazorat qilish uskunolari, chiqindilarni nazorat qilish dasturi, chiqindi suvlarni qayta ishlash tizimlarini o'rnatish orqali shu soha uchun chiqindilar bo'yicha o'rnatilgan talablarga rioya qilinadi. BAT qo'llanilishi sababli atmosferaga chiqariladigan chiqindilar darajasi milliy EIA me'yorlariga nisbatan ham pasayishda davom etadi, havo sifatini modellashtirish ishlari tugallandi, bu esa ta'sirni kamaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani sababli, mahalliy havo sifatiga sezilarli zarar yetkazmaganligini ko'rsatmoqda. Kompaniya yirik baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha tartib-qoidalarini va har qanday tavsiyalarni bajarishni o'z ichiga olgan xatarlarni batafsil miqdoriy baholash tartibini (QRA) ishlab chiqadi.

Kompaniya yangi zavodni ishga tushirgandan so'ng ham hozirgi ishchi kuchini saqlab qoladi va uni ko'paytiradi. Kompaniyadan ham, pudratchilardan ham tegishli ishlab chiqarish talablarni bajarish hamda tegishli qoidalar va tartiblar, jumladan, xodimlarning shikoyat qilish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi. Zavod faoliyatning birinchi yili davomida mustaqil mehnat auditi o'tkaziladi. Bundan tashqari, Kompaniya manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalar rejasi va tashqi shikoyat mexanizmini ishlab chiqadi. Bunda u manfaatdor tomonlarga tegishli ekologik va ijtimoiy ma'lumotlarini muntazam ravishda yuboradi. Bu manfaatdor tomonlarga mehnat xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan xavflar va nazorat vositalari, shuningdek favqulodda vaziyatlarga tayyorlik to'g'risidagi ma'lumotlarni yuborish choralari o'z ichiga oladi. Ushbu elementlarni o'zida aks ettirgan ESAP kompaniya bilan o'zaro kelishilgan.

Texnik ko'mak va grant asosida moliyalashtirish

Kompaniya Gender bo'yicha maslahat xizmatlari dasturi (TCRS 296) doirasida O'zbekiston uchun oldindan tasdiqlangan SSF (ijtimoiy himoya jamg'armasi) mablag'lari hisobidan ayollar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun 50 000 yevrogacha Texnik hamkorlik (TC) pul mablag'lari oladi. Texnik hamkorlik bo'yicha topshiriq Kompaniyaning 10 foizlik badali hisobidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, kompaniya ETC mintaqasidagi Global ekologik fond (GEF) tomonidan moliyalashtiriladigan YTTB Iqlim o'zgarishi uchun moliya va texnologiyalarni moslashtirish markazi (FINTECC) dasturidan iqlimga oid ilg'or texnologiyalar uchun Texnik hamkorlikdan tashqari 122 000 AQSH dollari miqdorida grantga ega bo'ladi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Rahul Singh
rsingh@indoramaglobal.com
+998 71 2332264
www.indorama.com

Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi 11/1-uy. 100100
O'zbekiston

Loyihaning qisqacha mazmuni so'nggi marta yangilangan sana

2020-yil 27-yanvar

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoriga oid loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron pochta orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonim tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiq qilish bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin..

Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi ya'ni IPAM yordamida o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

IPAM, arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning maqsadi loyihaning manfaatdor tomonlari o'rtasida ekologik, ijtimoiy va

axborotni ommaviy oshkor qilish bo'yicha muammolarini hal etishdagi murosani qo'llab-quvvatlash, Bank o'zining [Ekologik va ijtimoiy siyosatiga](#) yoki [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) ning loyihaga oid tartiblariga rioya qilayotganini tekshirish va zarur hollarda, kelajakda ushbu qoidalarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, shuningdek, Bank tomonidan kelgusida bunday holatlarning oldini olishdan iborat.

Loyiha so'rovlarini [Maxfiy onlayn shakl](#), [elektron pochta](#), [pochta yoki telefon](#) orqali qanday jo'natish haqidagi ma'lumotlarni Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi veb-sahifasidan topishingiz mumkin. IPAM sizda yuzaga kelgan muammolarni muhokama qilish, shuningdek, [Loyiha bo'yicha hisobdorlik siyosati](#) va [ko'rsatmalariga](#) mos keluvchi so'rovlarni yuborish yoki ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha savollarga javob berish uchun doimo tayyor. Kerak bo'lsa, arizachilarning shaxsiy ma'lumotlarini maxfiy saqlaymiz.